

## TEMIR YO‘L TRANSPORTINING IQTISODIY SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING NAZARIY YONDASHUVLARI

**Maxmudov Xayrullo Olimovich**

Toshkent davlat transport universiteti  
tadqiqotchisi

### **Annotatsiya**

Mazkur tadqiqotda temir yo‘l transportining iqtisodiy samaradorligini oshirishning nazariy yondashuvlari ilmiy jihatdan tahlil qilindi. Tadqiqot davomida transport tizimining iqtisodiyotdagi o‘rni, temir yo‘l transportining tashkiliy-iqtisodiy xususiyatlari hamda uning samaradorligiga ta‘sir etuvchi omillar o‘rganildi. Tizimli, jarayonli va institutsional yondashuvlar asosida transport-logistika jarayonlari, infratuzilma holati va boshqaruv mexanizmlarining samaradorligi baholandi. Temir yo‘l transportining afzalliklari va mavjud muammolari iqtisodiy nuqtai nazardan tahlil qilindi. Tadqiqot natijasida infratuzilmani modernizatsiya qilish, raqamli texnologiyalarni joriy etish hamda logistika tizimlarini takomillashtirish transport samaradorligini oshirishning muhim yo‘nalishlari sifatida asoslandi.

**Kalit so‘zlar:** temir yo‘l transporti, iqtisodiy samaradorlik, transport tizimi, logistika, infratuzilma, raqamli texnologiyalar, transport boshqaruvi, yuk tashish.

### **Аннотация**

В данном исследовании научно проанализированы теоретические подходы к повышению экономической эффективности железнодорожного транспорта. В ходе исследования изучены роль транспортной системы в экономике, организационно-экономические особенности железнодорожного транспорта и факторы, влияющие на его эффективность. На основе системного, процессного и институционального подходов оценены транспортно-логистические процессы, состояние инфраструктуры и эффективность механизмов управления. Также с экономической точки зрения проанализированы преимущества железнодорожного транспорта и существующие проблемы отрасли. По результатам исследования обоснована необходимость модернизации инфраструктуры, внедрения цифровых технологий и совершенствования логистических систем как ключевых направлений повышения эффективности железнодорожного транспорта.

**Ключевые слова:** железнодорожный транспорт, экономическая эффективность, транспортная система, логистика, инфраструктура, цифровые технологии, управление транспортом, грузоперевозки.

### **Abstract**

This study analyzed theoretical approaches to improving the economic efficiency of railway transport. The research examined the role of the transport system in the economy, the organizational and economic characteristics of railway transport, and the factors affecting its efficiency. Based on systemic, process-oriented, and institutional approaches, transport-logistics operations, infrastructure conditions, and management mechanisms were evaluated. The advantages and existing challenges of railway transport were also analyzed from an economic perspective. The findings identified

infrastructure modernization, implementation of digital technologies, and improvement of logistics systems as major directions for increasing railway transport efficiency. The study confirmed the strategic importance of railway transport in ensuring stable cargo transportation and supporting sustainable economic development.

**Keywords:** railway transport, economic efficiency, transport system, logistics, infrastructure, digital technologies, transport management, freight transportation.

## KIRISH

Globalashuv va iqtisodiy integratsiya jarayonlarida transport tizimi mamlakat iqtisodiyotining eng muhim infratuzilmaviy tarkibiy qismlaridan biri sifatida namoyon bo‘lmoqda. Transport ishlab chiqarish jarayonining uzluksizligini ta’minlovchi asosiy omillardan biri bo‘lib, u xom-ashyo va tayyor mahsulotlar harakatini tashkil etish orqali iqtisodiy tizimning samarali faoliyat yuritishiga xizmat qiladi. Shu nuqtai nazardan, transport tizimisiz mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini tasavvur qilish mumkin emas .

Transport tizimi nafaqat yuk va yo‘lovchi tashishni amalga oshiradi, balki hududlararo iqtisodiy aloqalarni mustahkamlash, ichki va tashqi bozorlarni integratsiyalash, milliy iqtisodiy xavfsizlikni ta’minlash kabi muhim vazifalarni ham bajaradi. Zamonaviy iqtisodiy adabiyotlarda “transport”, “transport tizimi”, “transport infratuzilmasi”, “transport kompleksi” kabi tushunchalar keng qo‘llanilib, ular ko‘pincha sinonim sifatida ishlatiladi. Biroq mazkur tushunchalarning mazmunan farqlanishi ularni ilmiy jihatdan aniq talqin qilish zarurligini ko‘rsatadi .

Temir yo‘l transporti transport tizimining asosiy bo‘g‘ini sifatida mamlakat iqtisodiyotida alohida o‘rin tutadi. U yuqori yuk tashish qobiliyati, tashishlarning muntazamligi, nisbatan past tannarxi va ekologik jihatdan barqarorligi bilan boshqa transport turlaridan ajralib turadi. Shu bilan birga, temir yo‘l transporti infratuzilmasi katta kapital talab qilishi, uzoq muddatli investitsiyalar zarurligi hamda tabiiy monopoliya xususiyatiga egaligi bilan ham tavsiflanadi .

Temir yo‘l transport tizimini rivojlantirish va uning iqtisodiy samaradorligini oshirish dolzarb ilmiy-amaliy muammolardan biri hisoblanadi. Transport-logistika jarayonlarini optimallashtirish, raqamli texnologiyalarni joriy etish, yetkazib berish zanjirlarini samarali boshqarish kabi yo‘nalishlar ushbu tizim samaradorligini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

## ADABIYOTLAR SHARHI

Transport tarmoqlari mintaqaviy iqtisodiyotning muhim tarkibiy elementi sifatida aholi punktlari, sanoat obyektlari hamda xo‘jalik va rekreatsion hududlar o‘rtasidagi o‘zaro aloqalarni ta’minlaydi. Shu orqali ular yaxlit iqtisodiy makonning shakllanishiga xizmat qiladi. A.G. Granberg fikricha, transport infratuzilmasi hududdagi iqtisodiy jarayonlarni birlashtiruvchi asosiy omillardan biri hisoblanadi<sup>1</sup>.

Bu tushunchalar bilan bir qatorda va ularning sinonimi sifatida “transport kompleksi” tushunchasi keng qo‘llaniladi. Transport tizimidan farqli ravishda, ushbu

---

<sup>1</sup> Гранберг А.Г. Основы региональной экономики. - М.: ГУ ВШЭ, 2004. - 494 с.

atamani qo‘llash birinchi navbatda, transport sanoatining muhandislik-texnik tarkibiy qismiga, ya‘ni barcha turdagi transport vositalarining yig‘indisiga va transport infratuzilmasiga qaratilgan. Iqtisodchi A.A. Chebotayev fikricha, hududiy transport kompleksi - bu hududiy obyekt va uning iqtisodiyotiga tegishli transport .

“Transport kompleksi” atamasi “transport tizimi” dan farqli ravishda avvalo transport sanoatining muhandislik-texnik tarkibiy qismiga, ya‘ni barcha turdagi transport vositalari yig‘indisi va transport infratuzilmasiga urg‘u beradi. Iqtisodchi A.A. Chebotayev ta‘kidlashicha, hududiy transport kompleksi - bu muayyan hudud va uning iqtisodiyotiga xizmat qiluvchi transport tizimidir<sup>1</sup>.

M.B. Petrov transport tizimini bir nechta asosiy jihatlar orqali tavsiflaydi. Avvalo, transport tizimi strukturaviy, funksional va texnologik elementlarni o‘zida mujassamlashtirgan yirik tizimli tashkilot sifatida namoyon bo‘ladi<sup>2</sup>. Shu bilan birga, u transport xizmatlarini amalga oshirishda ishtirok etuvchi texnologiyalar va texnologik jarayonlar majmuini birlashtiruvchi texnologik tizim hisoblanadi. Ushbu jarayonlar o‘zaro bog‘liq va ixtisoslashgan bo‘lib, transport ehtiyojlarining barqaror manbaini shakllantiradi.

Transport tizimi institutsional jihatdan ham muhim bo‘lib, u faoliyat yurituvchi subyektlar o‘rtasidagi tartibga solingan munosabatlar majmui sifatida qaraladi. Institutsional muhitning rivojlanganligi transport tizimining samaradorligi va imkoniyatlariga bevosita ta‘sir ko‘rsatadi.

## **METODOLOGIYA**

Mazkur tadqiqotda temir yo‘l transport tizimining iqtisodiy samaradorligini o‘rganish uchun tizimli, jarayonli va institutsional yondashuvlardan foydalanildi. Tizimli yondashuv asosida transport tizimi o‘zaro bog‘liq elementlar majmui sifatida tahlil qilinib, jarayonli yondashuv orqali transport-logistika operatsiyalari va ularning samaradorligi baholandi. Tahlil va sintez, taqqoslash hamda iqtisodiy-statistik usullar yordamida temir yo‘l transportining afzalliklari va kamchiliklari aniqlanib, uning samaradorligiga ta‘sir etuvchi omillar o‘rganildi.

## **TAHLIL VA NATIJALAR**

Transport tizimi iqtisodiyotning murakkab va ko‘p funksiyali quyi tizimi sifatida ishlab chiqarish, taqsimlash va iste‘mol jarayonlari o‘rtasidagi uzviy bog‘liqlikni ta‘minlaydi. U nafaqat moddiy oqimlarni harakatga keltiradi, balki iqtisodiy tizimning hududiy yaxlitligini shakllantiruvchi muhim omil sifatida ham namoyon bo‘ladi. Shu jihatdan transport tizimini iqtisodiyotning mustaqil tarmog‘i bilan bir qatorda, boshqa tarmoqlar faoliyatini qo‘llab-quvvatlovchi infratuzilmaviy tizim sifatida baholash mumkin .

Ilmiy manbalarda transportga oid tushunchalar turlicha talqin qilinadi. Xususan, “transport tizimi” tushunchasi transport vositalari, infratuzilma obyektlari, boshqaruv mexanizmlari va iqtisodiy munosabatlarning o‘zaro integratsiyalashgan majmui

<sup>1</sup> Чеботаяев А.А. Геотранспортные ресурсы России. - М.: Экономика, 2007. — 454 с.


<sup>2</sup> Петров М.Б. Эволюционные закономерности организации региональной системы транспорта // Теория эволюции социально-экономических систем / под ред. А.И. Татаркина, В.И. Маевского. - М.: Экономика, 2018. - С. 401-419.

sifatida qaraladi<sup>1</sup>. Ushbu yondashuv transport tizimini moddiy-texnik, tashkiliy va iqtisodiy elementlar uyg'unligida faoliyat yurituvchi kompleks tizim sifatida tavsiflash imkonini beradi .

Transport tizimi tarkibida temir yo‘l transporti yetakchi o‘rin egallaydi. Bu, avvalo, uning yuqori yuk tashish qobiliyati, tashish jarayonining muntazamligi va katta hajmdagi yuklarni uzoq masofalarga samarali yetkazib berish imkoniyati bilan izohlanadi. Temir yo‘l transporti ommaviy yuklarni tashishda iqtisodiy jihatdan eng maqbul transport turi hisoblanadi. Uning ekologik ta’siri avtomobil transportiga nisbatan pastroq bo‘lib, bu esa barqaror rivojlanish talablariga mos keladi .

Temir yo‘l transporti tizimi qator o‘ziga xos iqtisodiy va tashkiliy xususiyatlarga ega. Jumladan, ushbu tarmoq katta kapital qo‘yilmalarni talab qiladi, infratuzilma obyektlarini yaratish va modernizatsiya qilish uzoq

muddatli investitsiyalar bilan bog‘liq. Transport infratuzilmasining yuqori darajada markazlashganligi va katta miqdordagi doimiy xarajatlar mavjudligi temir yo‘l transportini tabiiy monopoliya sifatida shakllantiradi. Bunda infratuzilma segmenti monopol xarakterga ega bo‘lsa-da, tashish xizmatlari sohasida raqobat elementlarini joriy etish imkoniyati mavjud .



**1-rasm. Transport iqtisodiyot tarmoqlari tizimida<sup>2</sup>.**

<sup>1</sup> Вельможин А.В., Гудков В.А., Миротин Л.Б. Теория транспортных процессов и систем. - М.: Транспорт, 2014. - 167 с.

<sup>2</sup> Muallif ishlanmasi

1-rasmda iqtisodiyot tarmoqlari ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish sohalariga ajratilgan holda ko'rsatilgan. Ishlab chiqarish sohasi moddiy boylik yaratishga xizmat qiluvchi tarmoqlarni, noishlab chiqarish sohasi esa aholiga xizmat ko'rsatish bilan bog'liq faoliyatlarni o'z ichiga oladi. Rasmda transport va aloqa tarmog'ining ishlab chiqarish sohasi tarkibida alohida ajratilishi uning iqtisodiyotdagi infratuzilmaviy va bog'lovchi ahamiyatini ifodalaydi.

Transport tizimi samaradorligini oshirishda zamonaviy boshqaruv yondashuvlarining ahamiyati ortib bormoqda. Xususan, tizimli yondashuv transport jarayonlarini kompleks tarzda optimallashtirish imkonini bersa, jarayonli yondashuv transport-logistika operatsiyalarini takomillashtirishga xizmat qiladi. Yetkazib berish zanjirlarini boshqarish konsepsiyasi esa ishlab chiqarishdan tortib yakuniy iste'molchigacha bo'lgan jarayonlarni integratsiyalash orqali umumiy samaradorlikni oshiradi.

Logistika konsepsiyalarini qo'llash orqali transport xarajatlarini kamaytirish, yuk oqimlarini samarali boshqarish va xizmat ko'rsatish sifatini oshirish mumkin. Raqamli texnologiyalarni joriy etish esa transport tizimida monitoring, rejalashtirish va boshqaruv jarayonlarini avtomatlashtirish orqali samaradorlikni sezilarli darajada oshirish imkonini beradi.

Temir yo'l transportining afzalliklari	Temir yo'l transportining kamchiliklari
<ul style="list-style-type: none"> <li>• turli yo'nalishlarda yiliga o'n million tonna yuk va millionlab yo'lovchilar bilan hisoblangan temir yo'l liniyalarining yuqori o'tkazuvchanligi va tashish qobiliyati;</li> <li>• daryo transportiga nisbatan yuklarni yetkazib berishning yuqori tezligi va harakatlanuvchi tarkibdan foydalanishda yuqori manevr qobiliyati;</li> <li>• iqlim sharoiti yil va kun vaqtidan qat'i nazar, yuk va yo'lovchi tashishning muntazamligi;</li> <li>• ommaviy yuklarni uzoq va o'rta masofalarga, ayniqsa, marshrutlarga muvofiq, tashishda yuqori samaradorlik;</li> <li>• odatda, daryo va dengiz transportiga nisbatan yuklar harakatining qisqaroq yo'li;</li> <li>• yuk va yo'lovchilarni tashishning nisbatan past narxi; yuk ko'tarish qobiliyati yuqoriligi;</li> <li>• harakat xavfsizligining yuqoriligi va atrof-muhitga yetkaziladigan zararning past darajasi.</li> </ul>	<ul style="list-style-type: none"> <li>• temir yo'llarni qurishning yuqori qiymati va qoplanish muddatining uzoqligi;</li> <li>• transport xarajatlarida shartli belgilangan xarajatlarning katta ulushi (70 foizgacha);</li> <li>• metallning, shu jumladan, rangli metallning katta miqdorda sarflanishi;</li> <li>• transportni rivojlantirishning murakkab muammolarini hal qila oluvchi ilmiy salohiyatning yetishmasligi;</li> <li>• tarif tizimi bilan bog'liq muammolar;</li> <li>• texnologik ishlanmalarning jahon amaliyotining eng yaxshi namunalaridan ortda qolishi;</li> <li>• temir yo'l tarmog'ining uchastkalari va stansiyalarining past o'tkazish qobiliyati;</li> <li>• jismoniy va ma'naviy eskirgan asosiy vositalarning yuqori darajasi;</li> <li>• iqtisodiy xavfsizlik darajasining pastligi.</li> </ul>

**2-rasm. Temir yo'l transportining afzalliklari va kamchiliklari<sup>1</sup>.**

<sup>1</sup> Muallif ishlanmasi

2-rasmda temir yo‘l transportining iqtisodiy samaradorligiga ta‘sir etuvchi asosiy omillar - uning afzalliklari va kamchiliklari tizimli ravishda ko‘rsatilgan. Afzalliklar qatorida yuqori yuk tashish quvvati, past tannarx, tashishlarning barqarorligi hamda ekologik xavfsizligi keltirilgan bo‘lib, ular temir yo‘l transportining iqtisodiyotdagi strategik ahamiyatini belgilaydi. Bu omillar ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytirish, logistika samaradorligini oshirish va hududlararo iqtisodiy integratsiyani kuchaytirishga xizmat qiladi.

2-rasmda aks etgan yuqori kapital xarajatlar, infratuzilmaning eskirishi, texnologik ortda qolish va tarif tizimidagi muammolar tarmoqning rivojlanishida muayyan iqtisodiy to‘siqlar mavjudligini ko‘rsatadi. Bu holatlar investitsiya samaradorligiga, xizmatlar narxiga va transport tizimining umumiy raqobatbardoshligiga salbiy ta‘sir ko‘rsatishi mumkin.

Temir yo‘l transporti yuqori yuk ko‘tarish qobiliyati, tashishlarning muntazamligi va nisbatan past tannarxi bilan boshqa transport turlariga nisbatan ustunlikka ega. U ayniqsa ommaviy yuklarni uzoq masofalarga samarali tashishda muhim ahamiyat kasb etadi hamda ekologik va xavfsizlik jihatidan ham afzalliklarga ega. Ushbu tarmoq katta kapital xarajatlarni talab qilishi, infratuzilmaning qimmatligi va eskirishi, tarif tizimidagi muammolar hamda texnologik rivojlanishning yetarli emasligi kabi kamchiliklar bilan ham tavsiflanadi.

Temir yo‘l transportining muhim xususiyati shundaki, uning asosiy mahsuloti tashish xizmati bo‘lib, u butun tarmoq darajasida shakllanadi va tashilayotgan mahsulot o‘zgarishsiz qoladi. Shu bilan birga, infratuzilmaning yuqori xarajat talab qilishi ushbu sohani tabiiy monopoliya sifatida shakllantiradi.

Biroq tashish xizmatlari sohasida raqobat elementlarini joriy etish mumkin bo‘lib, bu transport tizimining samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Shu sababli temir yo‘l transporti infratuzilmasi monopol xarakterga ega bo‘lsa-da, xizmat ko‘rsatish segmentida raqobatbardosh muhitni rivojlantirish muhim hisoblanadi.

Olib borilgan tahlillar temir yo‘l transport tizimi iqtisodiy samaradorligini oshirish ko‘p omilli jarayon ekanligini ko‘rsatadi. Bu jarayonda infratuzilmani rivojlantirish, boshqaruv tizimini takomillashtirish, innovatsion va raqamli texnologiyalarni keng joriy etish hamda logistika yondashuvlarini integratsiyalash muhim ahamiyat kasb etadi.

## **XULOSA VA TAKLIFLAR**

Olib borilgan tadqiqotlar temir yo‘l transporti mamlakat iqtisodiyotining strategik va infratuzilmaviy jihatdan muhim tarmoqlaridan biri ekanligini tasdiqladi. Temir yo‘l transporti yuqori yuk tashish quvvati, tashishlarning barqarorligi, uzoq masofalarga iqtisodiy jihatdan samarali xizmat ko‘rsatishi hamda ekologik afzalliklari bilan iqtisodiyot tarmoqlari o‘rtasidagi uzviy aloqalarni mustahkamlashda muhim o‘rin egallaydi. Tahlillar natijasida transport tizimining samaradorligi infratuzilma holati, boshqaruv sifati, logistika jarayonlari va raqamli texnologiyalarni joriy etish darajasi bilan bevosita bog‘liqligi aniqlandi.

Tadqiqot davomida temir yo‘l transportining iqtisodiy samaradorligini oshirish ko‘p omilli va tizimli yondashuvni talab qilishi asoslandi. Xususan, logistika

zanjirlarini optimallashtirish, transport jarayonlarini raqamlashtirish hamda boshqaruv mexanizmlarini modernizatsiya qilish tarmoq samaradorligini oshirishning muhim omillari sifatida baholandi. Shu bilan birga, transport infratuzilmasini yangilash va texnologik modernizatsiyani jadallashtirish yuk va yo‘lovchi tashish sifatini oshirishga xizmat qilishi ta’kidlandi.

Tahlillardan kelib chiqib, quyidagi ilmiy-amaliy takliflarni ishlab chiqildi:

– temir yo‘l infratuzilmasini modernizatsiya qilish va yuqori samarali texnologiyalarni bosqichma-bosqich joriy etish;

– transport-logistika markazlari faoliyatini rivojlantirish va multimodal tashish tizimlarini kengaytirish;

– raqamli boshqaruv platformalari, monitoring va avtomatlashtirilgan boshqaruv tizimlarini keng qo‘llash;

– tarif siyosatini iqtisodiy samaradorlik va bozor tamoyillari asosida takomillashtirish;

– energiya tejamkor va ekologik xavfsiz texnologiyalarni joriy etish orqali barqaror transport tizimini shakllantirish;

– transport xizmatlari sifatini oshirish maqsadida logistika va boshqaruv sohasida malakali kadrlar tayyorlash tizimini rivojlantirish.

Mazkur yo‘nalishlarning izchil amalga oshirilishi temir yo‘l transportining raqobatbardoshligini oshirish, transport xarajatlarini kamaytirish hamda mamlakat iqtisodiyotining barqaror rivojlanishini ta’minlashga xizmat qiladi.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI**

1. Гранберг А.Г. Основы региональной экономики. - М.: ГУ ВШЭ, 2004. — 494 с.

2. Чеботаев А.А. Геотранспортные ресурсы России. - М.: Экономика, 2007. — 454 с.

3. Петров М.Б. Эволюционные закономерности организации региональной системы транспорта // Теория эволюции социально экономических систем / под ред. А.И. Татаркина, В.И. Маевского. - М.: Экономика, 2018. - С. 401-419.

4. Вельможин А.В., Гудков В.А., Миротин Л.Б. Теория транспортных процессов и систем. - М.: Транспорт, 2014. - 167 с.



# Marketing

*ilmiy, amaliy va ommabop jurnali*

**Muharrir:**

**Ingliz tili muharriri:**

**Rus tili muharriri:**

**Musahhih:**

**Sahifalovchi va dizaynerlar:**

Xakimov Ziyodulla Axmadovich

Tursunov Boburjon Ortiqmirzayevich

Kaxramonov Xurshidjon Shuxrat o'g'li

Karimova Shirin Zoxid qizi

Sadikov Shoxrux Shuxratovich

Abidjonov Nodirbek Odijon o'g'li

**2026-yil, aprel, 4-son**

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar mas'ul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelavermasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga murojaat qilish mumkin. Ilmiy maqola, ommabop maqola, reklama, hikoya va boshqa ilmiy-ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

Elektron pochta:

[info@marketingjournal.uz](mailto:info@marketingjournal.uz)

Bot:

[@marketinjournalbot](https://t.me/@marketinjournalbot)

Tel.:

+998977838464, +998939266610

Jurnalning rasmiy sayti: <https://marketingjournal.uz>

Marketing jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi **Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2024-yil 04-oktabrdagi 332/5 sonli qarori** bilan milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan



"Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnali 2024-yil 15-martdan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan **C-5669517** reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan. **Litsenziya raqami: №240874**



"Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnalining xalqaro darajasi: **9710**. ГОСТ 7.56-2002 " Seriyali nashrlarning xalqaro standart raqamlanishi" davlatlataro standartlari talablari. **Berilgan ISSN tartib raqami: 3060-4621**